


INDIAMINOVA SHOIRA AMRIDDINOVNA



BUYUK IPAK YO'LI MEROSI VA MARKAZIY SUG'D:

TARIXIY TAJRIBA VA
ZAMONAVIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

MONOGRAFIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

INDIAMINOVA SHOIRA AMRIDDINOVNA

**BUYUK IPAK YO‘LI MEROSI VA
MARKAZIY SUG‘D: TARIXIY TAJRIBA VA
ZAMONAVIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

Monografiya

**“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti
Samarqand – 2026**

UO‘K: 94(5-87)‘‘00/06’’:339.5:737.1:338.48

Indiaminova Shoiri Amriddinovna. Buyuk Ipak yo‘li merosi va Markaziy Sug‘d: tarixiy tajriba va zamonaviy rivojlanish istiqbollari. Monografiya. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2026. – 160 b.

Ushbu monografiya Buyuk Ipak yo‘li davrida Markaziy Sug‘d mintaqasining tarixiy o‘rni va bugungi rivojlanish istiqbollari bag‘ishlangan. Kitobda mintaqaning qadimiy savdo yo‘lidagi geostrategik ahamiyati, shaharsozlik an‘analari, xalqaro diplomatiya va savdo aloqalari, shuningdek, sug‘d tangalarining xalqaro pul muomalasidagi roli ilmiy tahlil qilinadi. Asarda yangi tarixiy yondashuvlar, arxeologik topilmalar va raqamli texnologiyalar yordamida o‘tmish tajribasi bugungi kun talablari – barqaror turizm, madaniy merosni muhofaza qilish va xalqaro hamkorlik bilan bog‘lab ko‘rsatiladi. Muallif Markaziy Sug‘d yodgorliklarini nafaqat tarixiy obida, balki zamonaviy iqtisodiyot va madaniyat rivoji uchun muhim resurs sifatida qarashni taklif qiladi. Monografiyada mintaqaning tabiiy-geografik imkoniyatlari va shaharlashuv jarayonlari, qadimiy Sug‘dning xalqaro savdo va diplomatiya tizimidagi o‘rni, numizmatik meros va uning iqtisodiy tarixdagi ahamiyati, tarixiy yodgorliklarni zamonaviy turizm ob‘ektiga aylantirish yo‘llari, shuningdek, UNESCO merosi ro‘yxatiga kiritishning huquqiy va amaliy jihatlarini kabi masalalar yoritilgan.

Mas‘ul muharrir:

falsafa fanlari doktori (DSc), professor **M.N.Melikova**

Taqrizchilar:

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), **B.M.Meliqulov**

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), **A.N.Sandiboyev**

Monografiya Samarqand davlat chet tillar instituti Kengashining 2026-yil 2-may 9-son yig‘ilish bayonnomasi asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-292-30-9

© Indiaminova Shoiri Amriddinovna, 2026

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2026

KIRISH

Jahon tarixshunosligida Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb sivilizatsiyalarini bog'lovchi eng muhim transkontinental savdo-kommunikatsiya tizimi sifatida baholanadi. Ushbu yo'l nafaqat tovar ayirboshlash, balki siyosiy, diplomatik, madaniy va diniy g'oyalalar, texnologiyalar hamda san'at an'alarining keng miqyosda tarqalishiga xizmat qilgan. Shu bois Buyuk Ipak yo'li faoliyatida muhim bo'g'in vazifasini bajargan hududlarni kompleks o'rganish zamonaviy tarixshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonlarda Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan Markaziy Sug'd o'zining qulay geografik joylashuvi, rivojlangan sug'orma dehqonchiligi, shaharsozlik madaniyati va savdo infratuzilmasi bilan Buyuk Ipak yo'li tizimining strategik markazlaridan biri sifatida shakllangan. Samarqand, Buxoro, Panjikent, Kesh kabi shaharlar xalqaro savdo, diplomatik aloqalar va madaniyatlararo muloqot markazlariga aylangan bo'lib, bu holat Sug'dning jahon sivilizatsiyasi rivojida o'rnini belgilab bergan.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida Buyuk Ipak yo'li tizimi doirasida Markaziy Osiyo, xususan Markaziy Sug'd hududining savdo-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi tadqiq qilinmoqda. Sug'dning qulay geografik joylashuvi, rivojlangan shaharsozlik, savdo infratuzilmasi va mintaqalararo aloqalardagi vositachilik roli Buyuk Ipak yo'lining barqaror faoliyatida muhim omil sifatida e'tirof etilgan. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, hududdagi qadimiy va o'rta asr shaharlar, karvonsaroylar, qal'a va qo'rg'onlar asosiy tranzit yo'nalishlarga yaqin joylashgan. Shu bilan birga, Sug'd san'ati, hunarmandchiligi va shahar madaniyati Buyuk Ipak yo'li orqali keng hududlarga tarqalib, jahon sivilizatsiyasi tarixida muhim o'rin tutgan. Shu jihatdan, Markaziy Sug'dning tarixiy jarayonlari, rivojlanish omillari va madaniy almashinuvlarini tizimli tadqiq etish zamonaviy tarixshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida milliy tarix va madaniy merosni xolisona, ilmiy asosda o'rganish, qadimiy shaharlar va arxeologik yodgorliklarni asrash hamda ularni kelajak avlodlarga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, "Buyuk ipak yo'lining qoq yuragida joylashgan bu muazzam

shahar ming yillar davomida millatlararo muloqot, o'zaro madaniy va ma'naviy hamkorlik, savdo va ilmiy almashinuvlar markazi sifatida xizmat qilib kelgan"¹. Shu nuqtai nazardan Buyuk Ipak yo'li merosini zamonaviy mintaqaviy integratsiya jarayonlari, xalqaro madaniy hamkorlik va turizm sohasini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etish muhim ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Buyuk Ipak yo'li tarixiy tajribasini chuqur o'rganish hududlararo iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash, sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirish hamda O'zbekistonning jahon madaniy makonidagi o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zaro integratsiya va "Bir makon, bir yo'l" kabi trans-mintaqaviy loyihalar faollashmoqda. Markaziy Sug'dning qadimiy diplomatik tajribasi, uning turli elatlarni birlashtira olish qobiliyati va "Sug'diy diplomatiyasi" an'analarini o'rganish bugungi kundagi mintaqaviy hamkorlikning tarixiy poydevorini mustahkamlaydi. Bu meros O'zbekistonning xalqaro maydondagi madaniy nufuzini oshiruvchi muhim vositadir.

Globalashuv va turli yot g'oyalar xavfi kuchaygan hozirgi davrda Markaziy Sug'dning ilk o'rta asrlardagi madaniy landshafti — zardushtiylilik, buddaviylik, xristianlik va moniylikning o'zaro tinch-totuv yashashi (sinkretizm) o'ta muhim hayotiy darsdir. Tadqiqotda Sug'ddagi konfessiyalararo bag'rikenglikning tarixiy ildizlarini ochib berish yosh avlodda radikalizmga qarshi "ma'naviy immunitet"ni shakllantirishda muhim ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Шанхай ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатлар раҳбарлари кенгашининг мажлисидаги нутқи. 16.09.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5542>.

MUNDARIJA

Kirish	3
1. Ipak yo'li genezisi va Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi:	
Kontseptual yondashuvlar va yangi tarixshunoslik tahlili	5
2. Markaziy Sug'dning geo-strategik joylashuvi: Tabiiy resurslar, iqlim va urbanizatsiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligi	27
3. Diplomatiya va xalqaro munosabatlar: Sug'd ixshidlari va qo'shni davlatlar (Xitoy, Sosoniylar, Turk xoqonligi) o'rtasidagi aloqalar.	48
4. Numizmatika va pul muomalasi: Markaziy Sug'd tangalari xalqaro valyuta tizimining elementi sifatida	70
5. Markaziy Sug'd yodgorliklari zamonaviy turizm klasteri sifatida: Muammolar va istiqbollar	92
6. UNESCO va madaniy merosni muhofaza qilish: Sug'd obidalarini umumjahon merosi ro'yxatiga kiritishning strategik ahamiyati.....	117
Xulosa	138
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati	144

INDIAMINOVA SHOIRA AMRIDDINOVNA
BUYUK IPAK YO'LI MEROSI VA MARKAZIY SUG'D:
TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI

Monografiya

ISBN 978-9910-292-30-9

Muharrir: S. Karimova
Musahhih: U.Isakov
Tex.muharrir: Sh. Abduraximov

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti,
140117, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43.

Nashriyot tasdiqnomasi:
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

Bosmaxona tasdiqnomasi:



4268

Bosishga ruxsat etildi: 02.05.2026-yil.
Ofset bosma qog'oz. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}.
“Times New Roman” garnituras. Ofset bosma usuli.
Hisob nashriyot t.:10,0. Shartli b.t.: 7,5.
Adadi: 100 nusxa. Buyurtma № 641.

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo'limida chop etildi.
140117, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy.